

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 01, Январь

QUTIRISH KASALIGI VA UNING INSONLARGA TA'SIRI

Jo'rayev.D, Tursunov.Q

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, Termiz sh, Farovon massivi

43B-uy, e-mail: esadir_74@rambler.ru

Annotatsiya. Maqolada qutiriish kasaligining insonlarga qaysi yo'llar orqali yuqishi, qutish kasaligi bilan kasalangan odamning ilk belgilari va uning boshqa insonlarga tasiri, va kasalangan odamni davolash haqida ma'lumot keltirilgan.

Kalit so'zlar: qutirish, neyrotrop virus, qo'riquv, ko'p so'lak oqishi, tajavuskorlik.

RABIES AND ITS EFFECTS ON HUMANS

Jo'rayev Diyorbek, Tursunov Quvonch

Termez University of Economics and Service, Termez city, Faravan massif, 43B, e-

mail: esadir_74@rambler.ru

Abstract. The article discusses the ways in which rabies is transmitted to humans, the first signs of a person infected with rabies and its effects on other people, and the treatment of a sick person. Keywords: rabies, neurotropic virus, fear, excessive salivation, aggression

Keywords: rabies, neurotropic virus, fear, hypersalivation, aggression

БЕШЕНСТВО И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ЧЕЛОВЕКА

Джураев Д Турсунов К

Термезский университет экономики и сервиса, г. Термез, массив Фарован

43Б, e-mail: esadir_74@rambler.ru

Аннотация. В статье описаны пути передачи бешенства человеку, симптомы заражения человека с ранними симптомами бешенства и его влиянием на других людей, а также лечением больного человека.

Ключевые слова: бешенство, нейротропный вирус, страх, гиперсаливация, агрессия

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 01, Январь

- Kirish: **Quturish** – neyrotrop virus qo‘zg‘atadigan o‘tkir yuqumli [zooantrapanoz kasallik](#); [tomir tortishishi](#), [falajlik](#), [hiqildoq](#) va nafas muskullarining spazmi bilan kechadi. Quturish qadimdan ma’lum, uni suvdan cho‘chish kasalligi deb ham atashgan (qarang [Gidrofobiya](#)). Fransuz olimi Lui Paster XIX asrning 2-yarmida quturish kasalligiga qarshi [vaksina](#) kashf etdi, shu sababli quturishga qarshi tadbirlarni amalga oshiradigan barcha muassasalar Paster stansiyalari deb yuritila boshlandi. Ularning faoliyati tufayli quturgan hayvon tishlaganidan so‘ng vaqtida emlangan millionlab odamlar hayoti saqlanib qolindi. Qo‘zg‘atuvchisi quturishning yovvoyi virusi, u nerv hujayralarini tanlab jarohatlaydi. Virus sovuqqa chidamli, muzlatilganda uzoq saqlanadi. Tashqi muhitda, shuningdek, qaynatilganda, 3-5% li lizol, [xloramin](#) eritmalarida tez nobud bo‘ladi. Kasallikning yashirin davri hayvonlarda 14-16 kun. Shundan keyin bezovtalik, yirtqichlik, xatti-harakatning o‘zgarishi, ko‘p so‘lak ajralishi kuzatiladi. Hayvon hech narsa ichmay, yemay qo‘yadi. So‘ngra tomir tortishishi, falajlik boshlanib, hayvon o‘lib qoladi. Odamga quturish virusi kasal hayvon, asosan, it, mushuk va boshqa jonivorlar tishlaganida yoki so‘lagi teri yuzasiga tushganida yuqadi. Odamda quturish kasalligining yashirin davri 15 kundan bir necha oygacha (o‘rtacha 20— 30 kun) davom etadi. Quturgan it bo‘yin, yuzni tishlaganda bu davr qisqaroq, oyoqni tishlaganda uzoqroq bo‘ladi^[1].

- Etiopatogenezi:

Kasallikning qo‘zg‘atuvchisi rabdoviruslar guruhiga mansub. U ko‘pchilik issiqqonli [hayvonlar](#) uchun patogen bo‘lib, bemor kasallik klinik belgilari boshlanishidan 7-8 kun oldin so‘lagi bilan virus chiqara boshlaydi. Shikastlangan teri orqali kirgandan keyin virus nerv stvollari orqali bosh miyaga etib boradi va unda shish, qon quyilishi va nerv hujayralarining degeneratsiyasini chaqiradi Virus so‘lak bezlariga tushadi va so‘lak orqali tashqi muhitga ajraladi. Quturish maxsus (spetsifik) ensefalitga o‘xshab kechadi. Bir necha oydan bir yilgacha cho‘ziluvchi inkubatsion davrdan (ko‘pincha 20-90 kun) keyin boshlanadi. Inkubatsion davrning davomiyligi infitsirlanish dozasi va jarohatning joylashuviga (miyaga uzoq yoki yaqinligiga) bog‘liq. Klinik ko‘rinishi:

Inkubatsion davrdan keyin kasallikning prodromal davri (davomiyligi 1-3 kun), bu vaqtda esa kuzatiladi: tishlangan joy shishadi, tishlangan joyga yaqin joylashgan nervlarda [neuralgiya](#), umumiy madorsizlik, tana haroratining oshganligi, uyquning buzilishi. Keyin esa kasallikning avj olish bosqichi boshlanadi: suvdan qo‘rqish, tamoq

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 01, Январь

va hiqildoq mushaklarining ogʻriqli qisqarishlari, baʼzan suv ichishga harakat qilganida nafasning toʻxtashi, keyinchalik esa oqayotgan suvni koʻrganda yoki ovozi eshitganda, yoki suv haqida gapirganda mushaklar qisqarishi. Xurujlar bir necha soniya davom etadi va soʻnadi. Shu jumladan psixomotor qoʻzgʻalish xurujlari kuzatiladi: bemorlar agressiv boʻlib qoladilar, baqiradi, mebellarni sindirib odamga xos boʻlmagan kuchlar ishlatadi. Diagnostikasi:

Tishlangan jarohatning topilishi yoki hayvon soʻlagining shikastlangan teriga tushishi katta ahamiyatga ega. Odamda muhim belgilardan biri bu suvdan qoʻrqish, suv yoki ovqatlarni koʻrganda yutish mushaklarining spazmi yuz berishi tufayli bemorlar hatto bir stakan suv ham icha olmaydilar. Havoning bir ozgina harakati ham mushaklar qisqarishiga sabab boʻladi – aerofobiya. Soʻlak oqishining kuchayishi bunday bemorlarga xos belgilardan boʻlib, soʻlagi ogʻiz burchagidan doim oqib turadi. Diagnozni laboratoriyada tasdiqlash talab qilinmaydi.



Bugun oʻzbekistonliklar orasida jonivor boqadiganlar koʻpaygan. Ayniqsa yoz kunlarida koʻchada sayr qilib yurgan it yoki mushuklar ham talaygina. Va ular quturish kasalligining asosiy tarqatuvchisi hisoblanadi. Bu kasallikdan qanday himoyalani va davosi haqida Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qoʻmitasi mutaxassisi Klara Rajabboyeva Kun.uzʻga intervyu berdi.

Quturish bilan kasallanish bugungi kunda qanchalik koʻp uchraydi?

– Jahon Sogʻliqni saqlash tashkiloti maʼlumotiga koʻra, har yili dunyoda 59ming odam quturishdan vafot etadi. Oʻlimlarning 95 foizi Afrika va Osiyo davlatlarida sodir boʻladi. Albatta, ularning orasida Oʻzbekiston ham bor. Oʻzbekiston quturish kasalligi boʻyicha tabiiy oʻchoqli hudud hisoblanadi. Respublikada kasallik har yili, oʻz vaqtida

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 01, Январь

antirabik yordam uchun tibbiyot muassasalariga murojaat qilmaslik oqibatida va sanoqli sonlarda qayd etiladi.

Quturish qanaqa kasallik va qanday yo‘llar bilan yuqadi?

– Quturish (gidrofobiya) – issiqqonli hayvonlarda uchraydigan, neyrotrop virus qo‘zg‘atadigan, kasallangan hayvonning so‘lagi bilan muloqot natijasida (tishlashi, tirnashi, so‘laklashi va boshqa muloqotlar) yuqadigan, markaziy asab tizimining chuqur shikastlanishi bilan kechadigan va bugungi kunda o‘lim bilan yakun topadigan og‘ir zooantiroponoz, tabiiy o‘choqli o‘ta xavfli yuqumli kasallikdir.

Bu kasallik hatto **kemiruvchilar va ko‘rshapalaklardan** ham tarqalishi mumkin. Kasallik hayvonlardan hayvonlarga va hayvonlardan odamlarga yuqadi. **Odandan odamga va odamlardan hayvonlarga yuqmaydi.**

Quturish klinikasining kechishiga qarab, uch davrga bo‘linadi: boshlang‘ich, qo‘zg‘alish va falaj davrlari.

Kasallikning boshlang‘ich davri 1-3 kun davom etadi.

Alomatlari:

1. Tishlangan joy qichiydi, tortishib og‘riydi, bitgan jarohat va chandiqliq takroran yallig‘lanadi.

2. Bemor tushkunlikka tushadi, odamlar bilan muloqotdan qochadi, uyqusi

3. buzilib, ishtahasi bo‘g‘iladi, unda qo‘rquv hissi paydo bo‘ladi, kayfiyati o‘zgarib turadi, atrofga loqayd bo‘ladi.

4. Tana harorati subfebril bo‘ladi, eshitish va ko‘rish qo‘zg‘atuvchilariga nisbatan sezgirlik oshadi.

Kasallik boshlangandan 2-3 kun o‘tgach, bemorda qo‘zg‘alish, ya‘ni kasallikning avj olish davri boshlanadi.

Belgilari:

1. Bemorning tana harorati ko‘tariladi, qon tomirlarining urishi tezlashadi, suvni ko‘rganda, hattoki suv to‘g‘risida eshitganda yutish muskullari tortishib, qisqarib, qattiq og‘riydi, ya‘ni bemorda gidrofobiya alomati paydo bo‘ladi.

2. Shundan keyin bemorda havodan qo‘rqish (aerofobiya) alomati qo‘shiladi. Havo harakati yoki bemorni biror-bir narsa bilan yelpiganda (sochiq, qog‘oz va h.), bemor bo‘g‘iladi, talvasaga tushadi. Xuruj yorug‘likdan (fotofobiya), baland ovoz va shovqindan ham (akustofobiya) vujudga keladi.

3. Bemorning harorati **+38°Sgacha** ko‘tariladi, ovozi bo‘g‘iladi, badani terlab, so‘lagi oqadi, hiqichoq tutadi, ko‘z qorachig‘i kengayadi, oyoq-qo‘llari og‘riydi.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 01, Январь

Ko'zlari bir narsadan qo'rqqandek ko'rinadi. Tomirning tez-tez urishi davom etadi (taxikardiya), nafas olish yuzaki va tartibsiz bo'ladi, vaqti-vaqti bilan bemor chuqur nafas oladi. Muskullari tortishib, talvasalanish nafas va yutish muskullaridan boshlanib, keyin barcha muskullarga tarqaladi.

4. Bemorning uyquasi buziladi, o'z-o'zini tishlaydi. Es-hushi kirdi-chiqdi bo'lib qoladi, keyinchalik bemorning ko'ziga yo'q narsalar ko'rinadi (gallyutsinatsiya), u alahsiraydi.

Bu davr 2-3 kundan 5-6 kungacha davom etishi mumkin. Qo'zg'alish davri odatda 2-3 kun davom etadi. Kasallikdagi yorqin gidrofobiya, aerofobiya, fotofobiya, akustofobiya alomatlari boshqa kasalliklarda uchramaydi va bu alomatlar muhim tashxisiy ahamiyatga ega.

Davolash: Kasallikning belgilari boshlanganidan keyin bemorlarni qutqarib bo'lmaydi. Davolashning samarali usullari yo'qligi bemorlar hayotini qutqarish muammosini tug'diradi. Bemorlar ahvolini engillashtirish uchun simptomatik muolajalardan foydalaniladi. Bemorlarni qorong'i va tinch palatalarga joylashtiriladi. Harakat qo'zg'alishlarini to'xtatish uchun sedativ vositalar buyuriladi, [tutqanoq](#) xurujlari kuraresimon vositalar yordamida bartaraf qilinadi. Nafas buzilishlarini [trexeotomiya](#) va sun'iy nafas olish apparatiga ulash bilan bartaraf qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. *O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.*
2. Ergashev U.Y. *Xirurgik kasalliklar ToshTA 2020*
3. X.B.Saparov, *O'ta xaflri yuqumli kassaliklar 2019.*
4. *O'zbekiton Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligining 23.01.2015 yildagi 37-sonli qarori.*